

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 656 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шерматовна Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi	243
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari	312
Olimova Nodira Xamrakulovna	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	324
Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvda faoliyat uzluksizligini baholash.....	331
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий.....	335
Махкамова Надира Саидмуратовна	
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili	340
Otajonova Gulhayo Maqsud qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish	345
Xudoyorov Laziz Niyojovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	
Mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari	351
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilgan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi.....	357
Amonova Dilafroz O'tkurovna	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish	362
Axmedov Miraziz Alisherovich	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari	367
Hamrokulov M. O.	



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalarini faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
Shodmonqulov Kamoliddin Murodilloevich	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе	388
Шадиева Дилдора Хамидовна	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	392
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choralari.....	402
Oybek Toshtemirovich Karimov	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish	406
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Ishsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba.....	412
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Takroriy ekinlar urug'ini to'g'ridan-to'g'ri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti.....	418
Abdullayev Baxodirjon Valijon o'g'li	
Banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli.....	422
Abdullayeva Dildora Qudratovna	
Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari	425
Adxamov Samariddin	
Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....	430
Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xo'jaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda.....	435
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari.....	441
Maxamadaliyeva Mahliyoqon Maxamadmurod qizi	
Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari.....	448
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati	453
Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar o'g'li	
Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili	459
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasidan foydalanish	466
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati va o'rni.....	473
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Raiya Maxsudovna	
Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning o'rni	479
Xudayarova Zuxra Yuldashevna	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ.....	482
Бекназова Комилахон Миркамол кизи	
Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari.....	490
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi.....	497
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	



Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....	503
Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна	
Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari.....	509
Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich	
Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане	513
Холдарова Фариза Тухтабаевна	
Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....	519
Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Искандарович	
Efficiency of Internal Audit Service and Report Improvement: Control of Sanatorium-Wellness Institution	528
Shafkarov Fahriddin Khudaiberdievich	
Development of Digital TV Services in the Conditions of Digitalization of the Economy.....	534
Farhad Karimov	
Kichik biznes faoliyatida muhim muvaffaqiyat omillarini belgilashning ahamiyati va ularni baholash.....	538
Kabulova Nurg'o'zal Umirbek qizi	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ekonometrik tadqiq etish.....	541
Muminova Maxbuba Abduvafayevna	
Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash.....	548
Musurmonova Mahbuba Omonovna	
Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini ichki tartibga solishni takomillashtirishning ayrim jihatlarini..	552
To'rayev Nurbek Muxammadovich	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili.....	557
Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich	
Strategik boshqaruv hisobi va uning uslubiyotini takomillashtirish masalalari.....	562
Sharipova Shoxida Abdinabiyeвна	
O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari.....	567
Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlarini	574
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning ayrim me'yoriy-huquqiy asoslari	578
Turanov M. Sh.	
O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o'rni.....	586
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Zubaydullayeva Zulayxo Karimovna, Kaxarova Dildora Erkinovna	
O'zbekistonda tayyor kiyimlar bozori ko'lamini oshirishda marketing strategiyalarining samaradorligi.....	596
Urazov Mansur Musurmanovich	
Yevropaga barqaror eksport va qishloq xo'jaligida yashil rivojlanish uchun	
Mosh bozori strategiyalarining ta'sirini baholash	599
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
Rangli tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonlarini paralellashtirish	605
Xidirova Barchinoy Ilxomovna	
Korxonalarda ishchi personal ehtiyojlarini motivatsiyaga ta'siri	610
Aripov Oybek Abdullayevich, Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в	
маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ	615
Бекназова Комилахон Миркамол кизи	
Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari.....	623
Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.	
Positioning Textile Products in Competitive Strategy	626
Икрамова Нодира Бурхон кизи	



Sanoatni tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash.....	631
Kasimov Azamat Abdukarimovich	
O'zbekiston Respublikasi budgetini shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	638
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
To'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish masalalari.....	645
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
Влияние плодородности почвы на урожайность хлопчатника в хлопково-текстильных кластерах Республики Каракалпакстан	650
Сагиева Молдир Оразбай кизи	



SANOATNI TARKIBIY O'ZGARISHLAR ASOSIDA MAQBULLASHTIRISH VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH

Kasimov Azamat Abdukarimovich

DSc, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchisi



PROGRESS

ПРОГРЕСС

TARAQQIYOT

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat tarmog'ining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan. Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi miqdoriy va nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha ekonometrik modellashtirish asosida prognozlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish asosida tarmoq samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, sanoat salohiyati, omil unumdorligi, iqtisodiy va statistik baholash usullari, samaradorlik, tahlil.

Abstract: This article examines the indicators of economic efficiency of the industrial sector and the factors affecting it. Forecast scenarios were developed based on econometric modeling of quantitative and relative indicators representing the economic efficiency of the industrial network. Also, proposals for increasing the efficiency of the industry have been developed based on the optimization of industrial sectors based on structural changes.

Key words: industry, performance indicators, performance factors, forecasting, efficiency, analysis.

Аннотация: В данной статье рассматриваются показатели экономической эффективности промышленного сектора и факторы, влияющие на нее. Прогнозные сценарии были разработаны на основе эконометрического моделирования количественных и относительных показателей, отражающих экономическую эффективность производственной сети. Также разработаны предложения по повышению эффективности отрасли на основе оптимизации отраслей промышленности на основе структурных изменений.

Ключевые слова: промышленность, промышленный потенциал, факторная производительность, методы микро-статистической оценки, эффективность, анализ.

KIRISH

Sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish – bu jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, foydalanilayotgan tabiiy resurslar zixirasining tugab borayotganligi, resurslar ta'minoti va narxlar bilan bog'liq o'zgarishlar, qolaversa, aholi turmush tarzining rivojlanishi va ular talabining o'zgarishlari, shuningdek, bugungi kunda ro'y berayotganidek global iqlim o'zgarishlari va ekologik muammolardan kelib chiqib mavjud sanoat tarmoqlarini tarkibiy qismlarini o'zgartirish tushuniladi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar va sharoitlar natijasida so'nggi besh yilda ushbu uchta tarmoqda ishlab chiqarish 2,6 barobar oshgan, ularning sanoatdagi ulushi 7 foizga yetgan. Shuningdek, 231 turdagi yangi mahsulotlar o'zlashtirilib, eksport 1,6 milliard dollarni tashkil etgan. Joriy yilning o'zida elektrotexnikada 163 million dollarlik 39 ta, kimyo sanoatida 70 million dollarlik 17 ta va farmatsevtikada 87 million dollarlik 57 ta korxona ishga tushdi. Shu bilan birga, bu tarmoqlarda foydalanilmagan imkoniyatlar hali ko'p. Ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish elektrotexnikada 50 foizga, kimyo sanoatida 40 foizga, farmatsevtikada 18 foizga ham yetmaydi", deb ta'kidladi ^[1].

Umuman olganda keyingi davrdagi mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va taraqqiyotning hozirgi talabi sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish va uning samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash orqali istiqbolli strategiyalar ishlab chiqish hamda bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Bularning barchasi mazkur mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy rivojlanish (samaradorlikning oshishi) bozorlarda raqobatning doimiy ravishda kengayib borishi bilan tavsiflanadi. Turli sohalardagi fan-texnika yutuqlari, kashfiyotlar bilan bog'liq keyingi o'n yillikdagi taraqqiyot sanoat korxonalari faoliyati va rivojlanishidagi ko'plab muammolarni ochib berdi va ularning rivojlanishini yanada jadallashtirdi ^[2].

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi haqidagi zamonaviy tushuncha quyidagicha ta'riflanadi. Sanoat korxonasining raqobatbardoshligi deganda uning iqtisodiy va boshqa imtiyozlarni maksimal darajada oshirish maqsadida resurslardan samarali va maqbul foydalanish va taqsimlash orqali yaxshiroq xususiyatlarga ega o'xshash mahsulot (tovar, ish, xizmat) ishlab chiqaruvchilari bilan ustun raqobat qilish qobiliyati tushuniladi. Bu esa ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi muhitda barqaror rivojlanishiga imkon beradi ^[3].

Hozirgi vaqtda sanoat tarmog'ida tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi munosabatlar uzoq muddatli yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi va strategik yo'nalishlarni namoyon etadi. Bu sanoat korxonalari va ularning kon-tragentlari o'rtasidagi munosabatlarni strategiklashtirishda global tendensiyalarning namoyon bo'lishiga imkon beradi. Ya'ni, butun sanoat tarmog'i, xususan, alohida sanoat ishlab chiqarish tuzilmalari faoliyati va rivojlanishida uzoq muddatli hamkorlik va strategik sheriklikning ahamiyati oshib bormoqda ^[4].

I.I. Ermatovning fikricha, erkin bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga bir qancha omillar ta'sir qilib, ularni quyidagicha keltirish mumkin ^[5]:

- sanoat korxonalarining iste'molchilar ehtiyojlariga moslashishi;
- sanoat tarmog'ining axborot kommunikatsiyalari texnologiyalari asosida modernizatsiya qilinganligi;
- jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasiga muvofiqligi ^[6];
- mulkchilikning turli shakllariga asoslangan ko'p tarmoqli iqtisodiyotga o'tish (davlat, xususiy, aksiyadorlik va jamoa);
- iqtisodiy faoliyatning barcha shakllarini erkin rivojlantirish;
- iqtisodiyotni moliyaviy sog'lomlashtirish;
- mamlakatning xalqaro munosabatlar bilan uzviy aloqasi.

I.V. Osipovning ta'kidlashicha, sanoat samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, tashqi omillarga siyosiy vaziyat, raqobatchilar, sheriklar, iste'molchilarning xatti-harakatlari va boshqa omillar kirsa, ichki omillarga esa texnologiyalar va boshqa ichki ishlab chiqarish resurslari kiradi ^[7].

Fikrimizcha, sanoat tarmog'ining iqtisodiy samaradorligiga omillar ta'siriga bo'lgan munosabat ularning manbaiga ko'ra ikki xil shaklda namoyon bo'lishi lozim:

- 1) Agar ta'sir qiluvchi ichki omil bo'lsa, u holda tarmoq ichki muhitini qayta ko'rib chiqish lozim;
- 2) Agar ta'sir qiluvchi tashqi omil bo'lsa, u holda unga moslashish kerak bo'ladi. Albatta, tashqi ta'sirlarga nisbatan agressiv yoki passiv munosabatda bo'lish ushbu amaliyotdagi jarayon davridagi boshqa omillar o'zgarishiga bog'liq bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash bo'yicha empirik tadqiqotlar hamda nazariy qarashlar o'rganilgan. Tadqiqotda empirik va nazariy jihatdan tahlil va sintez, deduksiya va induksiya, jadval, grafik, ekonometrik modellashirish usullaridan, shuningdek mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, prognozlashtirish uchun asosiy ishlab chiqarish funksiyasi bo'lgan Kobb-Duglas modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, sanoat tarmog'ining asosiy ko'rsatkichi bo'lgan sanoat mahsulotlari hajmini asosiy omillar bo'lgan kapital va mehnat resurslariga bog'liq holda murakkab prognozlashtirish asosida prognoz ssenariylarini ishlab chiqish afzaldir.

Demak, sanoat mahsulotlari hajmiga mazkur tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar va tarmoqda band bo'lganlar sonining ta'sirini miqdoriy baholash uchun quyidagi ko'rinishda model ifodalab olinadi.

$$Q = AK^{\alpha}L^{\beta} \quad (1)$$

bu yerda, Q – sanoat mahsulotlari hajmi, K – sanoat tarmog'ida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, L – sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni, A, α , β – modelning noma'lum parametrlari.

Modelning noma'lum parametrlarining qiymatlari eng kichik kvadratlar usuli yordamida topiladi.

2010–2023-yillar mobaynida sanoat mahsulotlari hajmi (Q), sanoat tarmog'ida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (K) va sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni (L) bo'yicha statistik ma'lumo-



tlar asosida eng kichik kvadratlar usuli orqali 1-model parametrlari aniqlanadi.

Buning uchun sanoat mahsulotlari hajmi taqqoslama narxlarga (2023-yil narxiga) keltirib olindi. Shuningdek, ko'rsatkichlar bo'yicha vaqtli qatorlarda tafodifiyoli komponentasi mavjudligi sabab, trend tekislash usulida tekislab olindi.

1-jadval: Sanoat tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish funksiyasi qiymatlari¹

Yil	Sanoat mahsulotlari hajmi (Q) (mlrd. so'm)	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (K) (mlrd. so'm)	Sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni (L) (ming kishi)	Q'	K'	L'	Q _{his.}
2010	73 223,5	4859,2	1605,7	11,20127223	8,48863	7,381315078	73 517,1
2011	86 964,4	6214,1	1 640,7	11,3732544	8,73458093	7,402878259	86 830,6
2012	103 283,9	8080,8	1669,5	11,54523656	8,997245686	7,420279459	102 700,3
2013	122 665,8	10368,1	1703,1	11,71721873	9,246484916	7,440205399	121 158,0
2014	145 684,8	13874,9	1736,5	11,8892009	9,537839794	7,459626872	145 983,9
2015	173 023,6	17738,4	1768,7	12,06118306	9,783484371	7,478000092	171 428,7
2016	205 492,6	19605,4	1802,4	12,23316523	9,88356045	7,496874389	186 728,3
2017	244 054,6	32877,7	1826,8	12,40514739	10,40055132	7,510321081	250 498,3
2018	289 853,1	59821,6	1802,9	12,57712956	10,99912142	7,497151759	334 645,2
2019	344 246,0	96065,4	1821,5	12,74911173	11,47278419	7,507415616	436 431,0
2020	408 846,0	94178,9	1809,5	12,92109389	11,45295095	7,500805843	426 939,5
2021	485 568,7	98516,4	1863,2	13,09307606	11,49797824	7,530050719	460 172,7
2022	576 688,9	117317,9	1810,6	13,26505823	11,67264266	7,501413561	479 387,6
2023	684 908,4	187818,7	1828,8	13,43704039	12,14323241	7,511415293	623 907,4

Ishlab chiqarish funksiyasi parametrlari $\bar{A} = 20,06402E - 04$, $\alpha = 0,5225428$, $\beta = 1,758631416$ qiymatlarga tengligi aniqlandi va quyidagi model tuzildi.

$$Q = 20,064E - 04\alpha K^{0,52} L^{1,76}$$

Tuzilgan modelni baholash natijalariga ko'ra, mazkur modelning approksimatsiya xatoligi (MAPE{0} 7 кичик, F-мезони бўйича ҳисобланган қиймат F_{jadval} қийматидан юқорилиги, $t_{\text{hisob}} > t_{\text{jadval}}$ bo'lib, model va model parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli, Darbin-Uotson mezon bo'yicha $1,5 < DW = 1,8 < 2,5$ tenglik bajarildi (avtokorrelyatsiya mavjud emas), determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,98$ ga teng bo'lib, model ishonchli deb baholandi.

Mazkur modelga asosan kapital sarfining 1 birlikka ko'payishi sanoat mahsulotlari hajmining 0,52 birlikka ko'payishini ko'rsatgan bo'lsa, mehnat sarfining 1 birlikka ko'payishi esa sanoat mahsulotlari hajmining 1,76 birlikka oshishini ko'rsatdi.

Yuqorida tuzilgan ishlab chiqarish modeli bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmini tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar va mehnat resurslari ko'rsatkichlariga bog'liq holda murakkab usulda prognoz qilish uchun tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar va mehnat resurslari ko'rsatkichlarini oddiy usulda, ya'ni, vaqtli qatorlarning o'zgarish xususiyatidan kelib chiqib, mos trend modellari asosida 2024–2030-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognoz qiymatlarini ishlab chiqish lozim.

Demak, yuqoridagi jadvalda keltirilgan sanoat tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha vaqtli qatorlarning o'zgarish tendensiyalari xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur ko'rsatkichni prognozlashtirish uchun eksponensial trend modeli optimal variant sifatida tanlandi va modelning noma'lum parametrlari eng kichik kvadratlar usulida aniqlanib, prognoz modeli tuzib olindi.

$$y_t = 3423,402e^{0,289t}$$

Tuzilgan modelni baholash natijalariga ko'ra, mazkur modelning approksimatsiya xatoligi (MAPE{2} $\bar{A} = 1,21 < 7$ кичик, F-мезони бўйича ҳисобланган қиймат F_{jadval} қийматидан юқорилиги, $t_{\text{hisob}} > t_{\text{jadval}}$ bo'lib,

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



model va model parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli, Darbin-Uotson mezon bo'yicha $1,5 < DW = 1,57 < 2,5$ tenglik bajarildi (avtokorrelatsiya mavjud emas), determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,93$ ga teng bo'lib, model ishonchli deb baholandi.

Shu jumladan, yuqoridagi jadvalda keltirilgan sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni bo'yicha vaqtli qatorlarning o'zgarish tendensiyalari xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur ko'rsatkichni prognozlashtirish uchun darajali trend modeli optimal variant sifatida tanlandi va modelning noma'lum parametrlari eng kichik kvadratlar usulida aniqlanib, prognoz modeli tuzib olindi.

$$y_t = 1589,327t^{0,0573}$$

Tuzilgan modelni baholash natijalariga ko'ra, mazkur modelning approksimatsiya xatoligi (MAPE{4} $\bar{A} = 0,13 < 7$ kichik, F-mezon b'yiicha xisoblangan qiymat F_{jadval} qiymatidan yuqoriligi, $t_{\text{hisob}} > t_{\text{jadval}}$ bo'lib, model va model parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli, Darbin-Uotson mezon bo'yicha $1,5 < DW = 1,57 < 2,5$ tenglik bajarildi (avtokorrelatsiya mavjud emas), determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,93$ ga teng bo'lib, model ishonchli deb baholandi.

Prognoz uchun tuzib olingan modellar asosida sanoat tarmog'ining quyidagi asosiy ko'rsatkichlari prognoz ssenariylari ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval: Sanoat tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'rta muddatli prognoz ssenariylari²

Yillar	Pessimistik stenariy	Dinamik stenariy	Optimistik stenariy
Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm			
2024	759 678,2	760 788,2	761 898,2
2025	889 456,4	890 566,4	891 676,4
2026	1 040 961,7	1 042 071,7	1 043 181,7
2027	1 217 815,6	1 218 925,6	1 220 035,6
2028	1 424 239,9	1 425 349,9	1 426 459,9
2029	1 665 156,2	1 666 266,2	1 667 376,2
2030	1 946 301,6	1 947 411,6	1 948 521,6
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd.so'm			
2024	259 253,6	261 173,6	263 093,6
2025	346 760,3	348 680,3	350 600,3
2026	463 586,2	465 506,2	467 426,2
2027	619 554,8	621 474,8	623 394,8
2028	827 781,1	829 701,1	831 621,1
2029	1 105 773,8	1 107 693,8	1 109 613,8
2030	1 476 908,6	1 478 828,6	1 480 748,6
Sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni, ming kishi			
2024	1 732,1	1 856,1	1 980,1
2025	1 739,0	1 863,0	1 987,0
2026	1 745,5	1 869,5	1 993,5
2027	1 751,6	1 875,6	1 999,6
2028	1 757,4	1 881,4	2 005,4
2029	1 763,0	1 887,0	2 011,0
2030	1 768,2	1 892,2	2 016,2

Tadqiqot doirasida mamlakatimiz sanoat tarmog'ida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohatlar va rejalashtirilgan istiqbolli strategiyalarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sanoat tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqilgan prognoz ssenariylari orasidan "dinamik ssenariy" optimal variant deb topildi.

2 Muallif hisob-kitoblari.



Unga ko'ra, 2030-yilga borib, sanoat mahsulotlari hajmi 1947411,6 mlrd. so'mga yoki joriy davrga nisbatan 2,84 baravarga, tarmoq bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1478828,6 mlrd. so'mga yoki 7,87 baravarga hamda sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni 1892,2 ming kishiga yoki 1,03 baravarga oshishi mumkin.

Bundan tashqari, sanoatda investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi hamda mehnat unumdorligi bo'yicha tuzilgan modellar barcha baholash mezonlari bo'yicha ijobiy baholandi hamda ushbu model asosida mehnat unumdorligi bo'yicha 2024–2030-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval: Sanoat tarmog'i resurslari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rta muddatli prognoz ssenariylari³

Yillar	Pessimistik stenariy	Dinamik stenariy	Optimistik stenariy
Investitsiyalar samaradorligi, mlrd.so'm			
2024	2,6053252	2,686919	2,7685128
2025	2,5166942	2,598288	2,6798818
2026	2,9367072	3,018301	3,0998948
2027	2,9931742	3,074768	3,1563618
2028	2,4956702	2,577264	2,6588578
2029	2,1136472	2,195241	2,2768348
2030	2,2927012	2,374295	2,4558888
Asosiy fondlar samaradorligi, mlrd.so'm			
2024	1,3177791	1,349222	1,3806649
2025	1,3082431	1,339686	1,3711289
2026	1,2969211	1,328364	1,3598069
2027	1,2858831	1,317326	1,3487689
2028	1,2747991	1,306242	1,3376849
2029	1,2637231	1,295166	1,3266089
2030	1,2526461	1,284089	1,3155319
Mehnat unumdorligi, mln.so'm/kishi			
2024	449,18	450,38	451,58
2025	558,87	560,07	561,27
2026	695,28	696,48	697,68
2027	864,91	866,11	867,31
2028	1 075,86	1 077,06	1 078,26
2029	1 338,19	1 339,39	1 340,59
2030	1 664,41	1 665,61	1 666,81

Tadqiqot doirasida mamlakatimiz sanoat tarmog'ida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohatlar va rejalashtirilgan istiqbolli strategiyalarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sanoat tarmog'ida investitsiyalar va asosiy fondlar samaradorligi hamda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari bo'yicha 2024–2030-yillarga mo'ljallangan ssenariylardan "optimistik ssenariy" optimal variant deb topildi.

Optimistik ssenariy bo'yicha prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga borib, sanoatda investitsiyalar samaradorligi 2,46 mlrd. so'mni tashkil etishi, ya'ni, mazkur ko'rsatkich 2030-yilda joriy davrga nisbatan qariyb 0,7 martaga pasayib ketishi mumkin.

Prognoz natijalari bo'yicha 2030-yilga borib, sanoatda asosiy fondlar samaradorligi 1,32 mlrd. so'm tashkil etishi mumkin. Bu joriy davrga nisbatan qariyb 0,96 martaga pasayishi kuzatilishi mumkin.

Optimistik ssenariy bo'yicha prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga borib, sanoatda mehnat unumdorligi 1666,81 mlrd. so'm/ming kishini tashkil etishi mumkin. Bu joriy davrga nisbatan qariyb 4,65 baravarga oshishi demakdir.

3 Muallif hisob-kitoblari.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil va prognozlashtirish natijalari hamad sabab va oqibatlar, shuningdek boshqa omillarni hisobga olib, bugungi va keyingi istiqbolda mamlakatimiz sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish borasida quyidagilarni taklif etamiz:

- 1) Tobora tugab borayotgan va taqchillik sezilayotgan, xususan yoqilg'i resurslariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida:
 - hozirda foydalanib kelinayotgan yoqilg'i resurslari: ko'mir, gaz, neft mahsulotlari, xususan benzin, dizel va boshqalar yoqilg'i turlari bo'yicha geologik qidiruv ishlarini samarali tashkil etish va yangi manbalarni (konlar) topib ishga tushirish;
 - yoqilg'iga bo'lgan talabning imkoni boricha ma'lum qismini (O'zbekiston–2030 strategiyasida mazkur raqam 40 % deb belgilangan) muqobil energiya manbalaridan foydalanishga o'tkazish;
 - yoqilg'i-energiya nisbatan arzon bo'lgan Turkmaniston, Qozog'iston va Rossiya davlatlari bilan yoqilg'i yetkazib berish borasida o'zaro samarali bo'lgan o'rta va uzoq muddatli strategik kelishuvlarga erishish va boshqalar.
- 2) Xom ashyo "eksport qiluvchi davlat"dan tayyor mahsulot (yuqori qo'shimcha qiymatli) "eksport qiluvchi davlat"ga o'tish uchun jadal tub islohotlarni kuchaytirish:
 - ilm-fan va texnologik rivojlanishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish va raqbatlantirish, ilmiy tadqiqot ishlarini tijoratlashtirish mexanizmini samarali amalga oshirish, ilmiy tadqiqot markazlarini (institutlari)ni ko'paytirish va ular bilan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida samarali integratsion hamkorlikni yo'lga qo'yish;
 - pirovarl natijada eksporti ko'paytiradigan va qayta ishlash (zararsiz va kam xarj evaziga) sanoati uchun xom ashyo bo'lgan tovarlar importini maqbullashtirish;
 - eksportiyor korxonalarning eksport faoliyatini yanada qo'llab quvvatlash, ko'maklashish va munosib sharoitlar yaratib berish.
- 3) Ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish asosida improt tovarlar o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish maqsadida:
 - mavjud xom ashyo bazalari va boshqa iqtisodiy resurslar imkoniyatlarini real baholash hamda bu borada xorijiy investorlarni jalb ettiradigan "reklama" ishlarini kuchaytirish;
 - yuqori texnologiyali va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi, jumladan xorijiy investorlarga qulay ishlab chiqarish muhitini yaratib berish;
 - xom ashyo yetkazib beruvchi korxonalarga biznes konsalting xizmatlarini ko'rsatish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularni tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga aylantirish maqsadga muvofiq.
- 4) Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, chuqur qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi klasterlar va korporatsiyalar faoliyatini tashkil etishni dastlar markazlashgan (davlat tashabbusi bilan) va davlat xususiy sherikchiligi asosida samarali yo'lga qo'yish lozim;
- 5) Davlat (klaster, korporatsiya, kompaniya, korxona) xaridi tajribasini qo'llash orqali xom ashyoti yetishtirish, uni qayta ishlash va sotishni qamrab oluvchi tizimli ishlab chiqarish amaliyotini rivojlantirish va h.k.;
- 6) Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining asosiy tarkibiy o'zgarishlaridan biri bu raqamlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanishdir. Bu iqtisodiy jarayonlar, xususan og'ir va katta hajmidagi mehnatni talab qiladigan sanoat tarmog'ida ishchilar mehnatini yengillashtirish (o'z o'rnida ayrim ish joylari qisqarsa, mazkur tarkibiy o'zgarish bilan bog'liq yangi ish joylari paydo bo'ladi), ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga olib keladi. Shu boisdan, mavjud shart-sharoit va tenologik imkoniyatlar darajasida tarmoq (korxonalari)ni maksimal darajada raqamlashtirish va sun'iy intellekt vositalari asosida tarkibiy o'zgartirishlarni kiritish hamda bunga davlat ko'magidan foydalanishni amalga oshirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25-dekabr kuni hududlarda elektrotexnika, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6945>
2. Stigler, G.J. Essays in the History of Economics, Chicago and London: The University of Chicago Press, 1965. p.97
3. Бухвалов А.В., Каткало В.С. Эволюция теории фирмы и ее значение для исследований менеджмента // Российский журнал менеджмента. – 2005. – №1(3). – С. 75 – 84.
4. Дудин М.Н., Лясников Н.В. Управление развитием инновационных предприятий промышленности // Народное хозяйство. Вопросы инновационного развития. М.: "МИИ Наука", 2011. № 1. С. 12–18.
5. Эрматов И.И. Факторы повышения эффективности производства // Актуальная наука. 2022. № 1 (48). 72 с.
6. Qosimov A. A. Analysis of state development programs (on the example of Surkhondaryo Region) // Theoretical & Applied Science. – 2019. – Т. 11. – С. 115-120.
7. Осипова И.В. Классификация групп факторов, оказывающих влияние на экономическую эффективность внедрения нового оборудования // Социально-экономические явления и процессы. Т. 10, № 8, 2015, 102 с.
8. <https://www.stat.uz/>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.